

**MAMLAKATIMIZDA YASMIQ YETISHTIRISH USULLARI VA
AGROTEXNOLOGIYASI****Qodirqulova Fotima***SamAti talabasi*

Annotatsiya: *Mamlakatimizda Qishloq xo'jaligi juda tez suratlarda rivojlanib bormoqda. Muxtaram Prezidentimiz ham Qishloq xo'jaligining barcha sohalariga e'tibor qaratmoqdalar. Hozirgi kunda dunyo aholisining turmush tarzini yaxshilashda, yuksaltirishda, aholi daromatlarini oshirishda hamda chorvachilikni yuqori oqsilli to'yimli ozuqalar bilan ta'minlashda dukkakli don ekinlari alohida o'rin egallaydi. Dehqonchilikda bu ekinlar tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda, tuproqda sof havodagi azotni tuproqda to'plash vazifasini bajarib qolmasdan, sifatli siderat ekin sifatida ham qo'llaniladi.*

Ushbu maqolada dukkakli don ekinlaridan biri bo'lgan yasmiq ekinining morfoligik biologik hususiyatlariga tasnif berib o'tamiz. Bundan tashqari yasmiq donining ekish va yetishtirish usullari maxsus agrotexnologiyasi va yasmiq ekinini parvarishlash haqida ma'lumotlar berib o'tamiz.

Kalit so'zlar: *Yasmiq, oqsil, kraxmal, gektar, urug', xo'raki yasmiq, SSP macrosperma, ekilish sxemasi, tuproq unumdorligi, ozuqaviy qiymat, asab kasalliklari, kuzgi yasmiq, bahorgi yasmiq.*

Yasmiq dukkaklilar oilasiga mansub bo'lib dukkaklilardan olinadigan protein eng arzon va eng oson hazm bo'ladiganlardan biridir. Dukkaklilar oilasiga mansub eng keng tarqalgan o'simliklardan biri yasmiqdir. Bu o'simlik qishloq xo'jaligida eng qadimiy hisoblanadi, bu ma'lumotni arxeologiklar topilmalar bilan tasdiqlangan. Arxeologlar tomonidan topilgan yasmiqning eng qadimgi qoldiqlari neolit davriga to'g'ri keladi. Yasmiq neolit davrida endigina paydo bo'lgan edi. Dukkaklilar oilasining bu vakili qadimgi rimliklar tomonidan, misrliklar, hindular, arablar tomonidan ko'p yetishtirilib kelingan. O'simlik qadimgi yunonlar orasida ham juda mashhur edi. Yasmiq birinchi marta Janubi-G'arbiy Osiyoda paydo bo'lgan deb ishoniladi. Yer yuzasida yasmiq 3,361 mln. gektar yerga ekiladi. Ayniqsa, Osiyo va O'rta yer dengizida mashhur. Yasmiqqa talab kundan kunga ortib bormoqda. Bugungi kunga kelib bu don yetishtirishda yetakchi o'rinni AQSh, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Nepal, Avstraliya, Suriya, Efiopiya va Marokash egallab turibdi. Hozirgi kunda yer sharida yasmiqning beshta turi uchraydi, asosan mamlakatimizda bittasi, ya'ni ovqatga ishlatiladigan xo'raki yasmiq ko'proq ekiladi. Xo'raki yasmiqning respublikamizda katta va kichik urug'li turi uchraydi. Yirik urug'li yasmiq (SSP macrosperma) baland bo'yli bo'lib, 60-70 sm ga yetadi. Dukkaklari ham yirik, urug'larining rangi sal yashil bo'lib, 6-9 mm gacha bo'ladi. 1000 dona urug'ining vazni 55-65 g keladi, o'suv davri navlariga qarab 80-120 kun. Mayda urug'li yasmiq (SSP microsperma) past bo'yli bo'lib, balandligi 40-50 sm bo'ladi, urug'larining diametri 2-5 mm keladi, rangi ko'proq jigarrang tusda

bo'ladi. O'suv davri qisqa, 65-70 kunda pishib yetiladi. Nisbatan qurg'oqchilikka chidamli. 1000 dona urug'ining vazni 25-30 g keladi.

Yasmiqning ildizi o'q ildizli bo'lib, u 50-100 sm chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizlarida tuganak hosil bo'ladi. 1950-1955-yillargacha O'rta Osiyoning turli tumanlarida yasmiq oziq ovqat maqsadlari uchun ko'p ekilgan. Hosildorligi nisbatan past bo'lganligi uchun keyingi yillarda mamlakatimizda uning maydoni kamayib ketdi.

Biologik xususiyatlari. Yasmiqning issiqqa talabchanligi o'rtacha o'sib rivojlanishi uchun 1500-1800°C daraja harorat talab qiladi. O'sib chiqayotganda ko'k no'xatga qaraganda ko'proq issiqlik talab qiladi. Maysalari 4-5°C da unib chiqadi. Havo haroratiga qarab unib chiqquncha 8-12 kun vaqt ketadi. Nihollarning muqobil o'sish harorati 23-25°C hisoblanadi. Maysalari qisqa muddatli sovuqlarga chidamli. Katta o'simliklari sovuqda. Hatto harorat -8°C bo'lganda ham zararlanmaydi. O'suv davri 70-105 kun. O'zidan changlanadi.

Yetishtirish usuli. Yasmiq dukkakli o'simliklar ichida o'tmishdosh ekinga talabchan hisoblanadi. Kartoshka kabi qator orasi ishlanadigan o'simliklardan keyin ekilishi lozim. Agar begona o'tlar ko'p bo'lsa, yasmiq sust rivojlanadi. Yasmiqdan keyin tariq, sulii, kartoshka o'simliklari ekilganda hosildorlik yuqori bo'ladi. Erta bahorda ekilgan bo'lsa, gektariga 60 kg P203, 30 kg K20 miqdorda o'g'it berish lozim. Ekilgandan keyin ikkinchi kultivatsiya bilan 15 kg azotli, 30 kg fosforli o'g'itlar beriladi.

Yasmiq imkoni boricha erta bahorda ekilishi lozim. Tajribalarga ko'ra, faqat erta bahorda ekilgan yasmiqlargina yuqori hosil beradi. Bahorda ekilgan yasmiq o'simligining tupi baquvvat, urug'lari yirik bo'ladi. Yasmiqning ekish muddatini to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega. Bahorda 10 kun keyin ekilganda ham hosildorlik 4-5 sentnerga kamayadi.

Respublikamizning janubiy mintaqalarida yasmiqni kech kuzda ham ekish mumkin. Chunki yasmiq sovuqqa chidamli, kech kuzda ekilganda iyun oyida yig'ishtirib olinadi. Yasmiq ekishning eng yaxshi usuli keng qatorlab ekishdir. Tajribalar yasmiqning qator orasi 33-45 sm kenglikda ekish yaxshi natija berishini tasdiqlaydi. Qator oralari 60 sm bo'lganda o'simlik uchun zarur bo'lgan namlik, oziqa moddalarning fotosintez jarayoni me'yoriy sharoitda boradi.

Yasmiqning ekish me'yori urug'ning yirikligi, tuproq iqlim sharoitiga bog'liq. Yirik urugii turlarining gektariga 100-140 kg, mayda urug'iga esa 70-100 kg sarflab ekiladi. Namlik yuqori, unumdorligi past tuproqda ekish me'yori 15-20 foizga oshirilsa, qurg'oqchil tumanlarida unumdorligi yuqori tuproqlarda ekish me'yori 15 foizga kamaytiriladi. Ekish chuqurligi tuproqdagi nam miqdori, havo haroratiga qarab 4-5 sm bo'ladi. Yengil qumoq va quruq tuproqlarda urug'lar 6-7 sm chuqurlikka tashlanadi.

Yasmiqning o'sishi uchun optimal harorat taxminan 20 daraja. Gullash birinchi kurtaklar paydo bo'lishidan taxminan 45 kun o'tgach sodir bo'ladi. Kurtaklar oldidan dukkaklilar oilasining bu vakili ancha sekin o'sadi va gullashdan keyin u yaxshi o'sadi va shoxlana boshlaydi. Yasmiq no'xatdan farqli o'laroq, qurg'oqchilikka yaxshi toqat qiladi.

Bu uni beqaror yomg'irli hududlarda yetishtirishga imkon beradi Urug'larni ekish paytida tuproq namligi haddan tashqari ko'p bo'lsa, bu kelajakdagi hosilga zarar yetkazadi, chunki yasmiq emas, balki o'simlikning bargli qismi o'sadi. Shu bilan birga, yasmiq paydo bo'lishi davrida hosil miqdori va suv yetishmasligini ham kamaytiradi. Yomg'ir uzoq davom etgan qurg'oqchilik oqibatlarini bartaraf qilishi va o'simliklar qayta gullashi mumkin. Yasmiq ekishdan oldin yerni o'g'itlash shart emas, chunki hosil bargli massaga ega bo'ladi. Shuning uchun, organik o'g'itlarni yerga qo'llashdan keyin uchinchi yilda yasmiq ekish yaxshidir.

Yasmiq juda noyob o'simlik bo'lib o'zida zaxarli moddalar to'plamaydi. Unda na nitratlar, na radionuklidlar saqlanmaydi. Shuning uchun yasmiq butunlay ekologik toza don hisoblanadi. Yasmiqning poyasi ancha shoxlangan, barglari juftlashgan. Madaniyat o'zining rivojlanish cho'qqisiga yetganida, tashqi tomondan u bekamu-ko'st tupga o'xshaydi. Yasmiq doni turli o'lchamlarda bo'lishi mumkin.. Shunday qilib, katta urug'li, kichik urug'li yasmiq bor. Eng oddiy, kichik urug'li nav hisoblanadi. O'simlik gullash davrida juda chiroyli. Yasmiqning ko'p turlari o'z-o'zidan changlanadi. O'zaro changlanishni faqat bu o'simlikning ayrim navlarida topish mumkin. Yasmiqni ochiq erga ekish tavsiya etiladi.

Yasmiq ekish uchun g'amxo'rlik qilish xususiyatlari

Yasmiq etishtirishda eng birinchi o'rinda turadigan muommolar ekinlarning tezda begona o'tlar bilan o'sib borishi. Ular yasmiq donining hosildorligiga ta'sir qiladi. Tuproqni maxsus preparatlar bilan davolash orqali buni oldini olishingiz mumkin. Yasmiq bilan shug'ullanadigan agronomlar ko'pincha Pivot gerbitsidini afzal ko'rishadi (iste'mol 1 ga uchun 0,65 ml). U bir martalik va ko'p yillik begona o'tlarni bir marta qo'llash bilan yo'q qiladi. Shu bilan birga, gerbitsidning ta'siri butun mavsum davom etadi va bunga ehtiyoj ham yo'q. Pivot gerbitsidining yana bir afzalligi shundaki, u yasmiq ekishdan oldin yoki keyin, vegetatsiya davrida qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, yasmiq kasalliklarga moyil ekanligini unutmang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabayeva X. N. O'simlikshunoslik. – Toshkent : Mehnat, 2000. – b.134-136.
2. Atabayeva X. N. Qurbonov A.A. Yasmiq yetishtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. O'zR fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasi Yasmiq yetishtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Navro'z nashryoti, 2020-yil 36-b
3. Qurbonov A. Yasmiq navlari xosildorligiga ekish muddati va me'yoring ta'sirini o'rganish va ilmiy asoslash. Avtoreferat. Toshkent 2022-yil 46-b